Tadqiqot doirasida M.A. Lipchanskaya, A.V. Shindina (2025), E.V. Poluyanova (2025), M.N. Stepanova (2025), E.V. Vorobieva (2005), V.V. Kovalyova, Y. Kryvytskyiy (2023), A. Wicaksana, A. Putri, M. Orias (2025), Y. Gavrilova va O. Rybakova (2021) kabi olimlarning huquqiy siyosat transformatsiyasi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Ularning yondashuvlari orqali transformatsiya jarayonining nazariy tahlili hamda ushbu jarayonning davlat huquqiy siyosatiga ta'sir darajasini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Mazkur tadqiqotda o'rganilayotgan mavzuga kompleks yondashuv qo'llandi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, mantiqiy va tahliliy yondashuv usullari tashkil etadi. Davlat huquqiy siyosati transformatsiyasining huquqiy mexanizmlarini o'rganishda normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini tahlil qilish hamda amaliyotda mavjud muammolarni tizimli ravishda o'rganish asosida davlat huquqiy siyosati transformatsiyasi bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Mavzuni o'rganish jarayonida tizimli yondashuv orqali transformatsiya jarayonining barcha bosqichlari kompleks tarzda tahlil etildi.

**Asosiy qism**

Transformatsiya jarayoni bugungi kunda barcha davlatlarni – xoh u iqtisodiy jihatdan barqaror va rivojlangan davlat bo'lsin, xoh iqtisodiy jihatdan qoloq davlat bo'lsin – birdek qamrab olgan hodisa hisoblanadi. Transformatsiya – davlatning fundamental o'zgarishi (Leibfried, et al., 2015). Transformatsiya jarayoni shunchaki islohot yoki o'zgarish emas, balki jamiyat va davlatning barcha jabhalarida bir holatdan ikkinchi holatga butunlay o'tish jarayonidir (Safarov, 2021).

"Transformatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "transfor" va "matio" so'zlaridan kelib chiqqan. U "o'zgarish" va "oldinga" degan ma'nolarni anglatadi hamda jamiyat va davlat o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni ifodalash uchun ishlatiladi (Lamazhaa, 2011). "Transformatsiya" tushunchasiga turli olimlar va tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan.

Xususan, M.A. Lipchanskaya, A.V. Shindina (2025) quyidagicha ta'rif keltiradi: zamonaviy yuridik fanda "raqamlashtirish" hamda "raqamli transformatsiya" tushunchalari uchraydi va bu ikki atama bir xil ma'noni anglatmaydi. Ya'ni "raqamlashtirish" – amaldagi va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'lsa, "raqamli transformatsiya" esa raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali kengroq o'zgarishlarni qamrab oladi. Negaki, u o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish hamda yangi qadriyatlarni yaratish maqsadida raqamli imkoniyatlardan foydalanish uchun jarayonlarni kompleks, strategik o'zgartirishga qaratilgan. E.V. Poluyanova (2025) esa quyidagicha ta'rif beradi: "raqamli transformatsiya" atamasi IT-aktivlardan foydalanish orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish va davlat funksiyalarini elektron shaklda bajarish tizimini o'zgartirishga qaratilgan harakatlar majmui hisoblanadi". Albatta, jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, ular rasmiy yoki huquqiy jihatdan o'zgarishsiz qolgan taqdirda ham, ijtimoiy institutlar tizimi faoliyatining xarakteriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi (Chryssogelos, 2020).

Davlat huquqiy siyosati – davlat tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida huquqiy tartibotni ta'minlash, huquqiy ri-

vojlanishni boshqarish, shuningdek, huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun olib boriladigan strategik faoliyatlardan biri. Davlat huquqiy siyosati davlatning huquqiy mafkurasi hamda amaliy faoliyatini oʻz ichiga oladi. Davlat huquqiy siyosati – davlatning huquqiy mafkurasi, yaʼni gʻoyalar, nazariyalar, konsepsiyalar hamda dasturlar majmui boʻlib, ular koʻpincha normativ-huquqiy hujjatlar shaklida mustahkamlanadi. A. Mazurenkoning (2004) fikriga koʻra, huquqiy siyosat jamiyatni boshqarishning eng samarali va oqilona shakllaridan biri sanaladi. Prinsipial jihatdan, har qanday oqilona siyosat huquqiy boʻlishi kerak, yaʼni qonunlarga, yuridik meʼyorlarga muvofiq boʻlishi, xalqaro standartlarga va inson huquqlari gʻoyalariga javob berishi lozim.

Davlat huquqiy siyosati transformatsiyasi – davlatning huquqiy tizimi hamda siyosatining tubdan oʻzgarishi, zamonaviy ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va texnologik omillar taʼsirida huquqiy tartibot hamda boshqaruv usullarining yangilanish jarayoni. Ushbu tushuncha orqali huquqiy siyosatning doimiy rivojlanishi va moslashuvchanligi, shu jumladan, davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning oʻzgarishi tushuniladi.

Huquqiy tizimni isloh qilish jamoat xavfsizligini taʼminlash sharoitida alohida ahamiyatga ega. Huquqiy tartibga solish samaradorligining asosiy omillari – huquqiy normalarning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning toʻliqligi va huquqiy tartibga solishning aniqligi, shu jumladan, huquqiy va maʼnaviy-axloqiy meʼyorlarning izchilligi (Stepanova, 2025).

Davlat huquqiy siyosati transformatsiyasi natijasida huquqiy tizim moslashuvchan hamda zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga javob bera oladigan boʻladi. Bu jarayon huquqiy islohotlar, institutsional oʻzgarishlar, shuningdek, jamiyatning faol ishtiroki orqali amalga oshiriladi. Transformatsiya huquqiy siyosatni faqat tashkiliy yoki protsessual oʻzgarish emas, balki mazmunan va strategik rivojlanish sifatida talqin etadi.

Davlat huquqiy siyosati transformatsiyasining asosiy yoʻnalishlari quyidagilarda namoyon boʻladi:

– konstitutsiyaviy va huquqiy islohot;
– texnologik va raqamli transformatsiya;
– jamiyat ishtiroki va inklyuzivlik;
– samarali boshqaruv va innovatsiya.

*Konstitutsiyaviy va huquqiy islohotlar* yoʻnalishi doirasida konstitutsiyaviy oʻzgarishlar, huquqiy plyuralizm hamda xalqaro standartlar doirasidagi qoidalarni tushunishimiz mumkin. Milliy huquq tizimini oʻzgartirish adolatli demokratik davlat poydevorini shakllantiradigan muhim jarayonlardan biri sanaladi. Baʼzi huquqiy tizimlar inklyuzivlik va adolat yoʻlida muhim qadamlar qoʻygan boʻlsa-da, boshqalari esa demokratik taraqqiyotga toʻsqinlik qiluvchi eskirgan amaliyotlarda saqlanib qolmoqda. Amaldagi huquqiy bazalarning asosiy cheklovlaridan biri – ularning marginal guruhlarni yetarli darajada himoya qila olmasligi. Koʻpgina yurisdiksiyalarda qonunlar bir xilda qoʻllanmaydi, buning natijasida esa ozchiliklar, ayollar va boshqa zaif aholi vakillariga nisbatan tizimli diskriminatsiyaga olib keladi. Bu adolatsizlik nafaqat adolat tamoyillariga putur yetkazadi, balki aholining huquq tizimiga boʻlgan ishonchini ham yoʻqotishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi nomutanosibliklarni bartaraf etish yanada inklyuziv va adolatli huquqiy muhitni taʼminlash uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, siyosiy hokimiyatning huquqiy jarayonlarga taʼsirini ham eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi. Baʼzi hollarda qonunlar jamiyat manfaati uchun emas, balki hokimiyatdagilarning manfaatlarini koʻzlab oʻzgartiriladi. Adolatli demokratik davlatga erishish uchun huquqiy jarayonlarni siyosiy aralashuvlardan himoya qiluvchi mexanizmlarni yaratish zarur.

Shu jumladan, milliy huquqiy oʻzgarishlarda xalqaro huquqning oʻrni muhim aha-

miyatga egadir. Xalqaro huquq milliy huquq tizimining bazalarini shakllantirish hamda adolatli demokratik davlat sari oʻzgarishlarni ragʻbatlantirishda muhim rol oʻynaydi. Ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar va konvensiyalarda belgilangan tamoyillar davlatlarning milliy huquqiy asoslarini qayta shakllantirishga xizmat qiladi.

*“Texnologik va raqamli transformatsiya”* tushunchalari orqali raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, shuningdek, yangi huquqiy subyektlarni misol sifatida keltirish maqsadga muvofiqdir. Aytish joizki, axborot zamonaviy jamiyat ishtirokchilarining oʻzaro munosabatlarida asosiy omillardan biri sanaladi. Ammo uni raqamli muhitda, raqamli dunyoda olishning “streaming” tamoyili huquqiy bilimlardan bir xilda foydalanishni kafolatlamaydi. Raqamli formatda faoliyat yuritish jarayonida insonlar muayyan darajada hayotiy vaziyatga mos keladigan, dolzarblik hamda ishonchlilikka javob beradigan yuqori sifatli huquqiy ma’lumotlarning yetishmasligi muammosiga duch kelishadi.

Huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyati ikki jihatni nazarda tutadi:

1) axborotga kirishning amaldagi imkoniyati;

2) ma’lumotlarning jismoniy shaxs uchun ishonarliligi.

Ba’zi olimlar ushbu faoliyatni siyosiy jihatdan aniqlangan faoliyatning (huquqiy siyosat) alohida turi sifatida tan olmaydilar va uni pozitiv huquqning maxsus huquqiy toifalari sifatida koʻradi: kibermakonning huquqiy nazariyasi, raqamli texnologiyalar qonuni, axborot xavfsizligini huquqiy qoʻllab-quvvatlash va boshqalar. Ammo bu fikrlar ushbu faoliyatni konstitutsiya, ijtimoiy qadriyatlar va manfaatlarni himoya qilish, davlat hokimiyati hamda tabiiy huquq tamoyillari bilan bogʻlamaydi. Negaki, raqamli jamiyatda axborot umumiy qadriyatga aylanadi va tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy dinamika sharoitida huquqiy tan olish, farqlash, himoya qilish, ta’minlash va boshqarishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ushbu faoliyatni “huquqiy siyosat” deb atash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan tashqari, huquqiy siyosatning funksiyalariga raqamli texnologiyalar sohasidagi subyektlar oʻrtasidagi munosabatlarni yaratish va qonunchilik bilan tartibga solish, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini huquqiy mustahkamlash, himoya qilish hamda koʻpaytirish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish ham kiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari – rasmiy huquqiy axborot tizimlari, sud amaliyoti ma’lumotlar bazalari, davlat organlarining rasmiy internet portallari – vaqt oʻtgani sayin ma’lumotlar bilan tezkor operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi tahliliy vositalarni yaratish imkonini beradi (Gavrilova & Rybakova, 2021).

Huquqiy siyosatning transformatsiyasi bugungi kunda zamonaviy davlat boshqaruvida ijtimoiy faollik, *fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki hamda inklyuzivlik* tamoyillarining kuchayishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Bu yoʻnalish demokratik taraqqiyotning asosiy belgisi hisoblanib, huquqiy tizimni faqat davlat irodasiga tayanmasdan, balki jamiyat manfaatlari va ehtiyojlariga mos holda rivojlantirishni koʻzda tutadi.

Jamiyat ishtiroki – fuqarolarning, nodavlat notijorat tashkilotlarning, ommaviy axborot vositalarining hamda boshqa ijtimoiy subyektlarning huquqiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarida faol qatnashishi. Ushbu ishtirok qonun loyihalarini muhokama qilish, davlat dasturlarini baholash, jamoatchilik eshituvi va ijtimoiy nazorat kabi mexanizmlar orqali ifodalanadi. Jamoatchilik nazorati, bir tomondan, fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bogʻliq tarzda rivojlanib boradi, boshqa tomondan esa jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining yanada mustahkamlanishiga turtki beradi (Botirov, 2022).

Shunday qilib, huquqiy siyosat endilikda "yuqoridan pastga" tamoyili asosida emas, balki "hamkorlikda boshqaruv" yondashuvi orqali shakllanmoqda. Inklyuzivlik esa barcha ijtimoiy qatlamlar, shu jumladan, ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, etnik hamda diniy ozchiliklar, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj guruhlarning huquqiy siyosatdagi teng ishtirokini anglatadi. Inklyuziv yondashuv nafaqat adolat tamoyilini ta'minlaydi, balki huquqiy siyosatning samaradorligini ham oshiradi. Negaki, turli ijtimoiy guruhlarning fikr hamda tajribalari siyosiy qarorlarning hayotiyligini mustahkamlaydi. Bugungi global tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyat ishtiroki hamda inklyuzivlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, korrupsiya xavfini kamaytiradi. Xususan, BMT, Yevropa Ittifoqi va OECD tomonidan ilgari surilgan "Inclusive Governance" konsepsiyasi davlat siyosatini ishlab chiqishda ochiqlik, hisobdorlik va fuqarolar bilan muloqot tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston ham ushbu yondashuvni bosqichma-bosqich milliy huquqiy tizimiga tatbiq etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda jamoatchilik eshituvi, qonun loyihalarini ochiq muhokama qilish platformalari hamda elektron hukumat tizimlari orqali fuqarolarning huquqiy siyosatdagi ishtiroki kengaymoqda. Natijada jamiyat ishtiroki va inklyuzivlik huquqiy siyosat transformatsiyasining markaziy komponentiga aylanmoqda. Bu esa huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatining o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biridir.

*Samarali boshqaruv* – jamiyat hayotining huquqiy, tashkiliy va madaniy jihatlarini o'zida mujassam etuvchi, davlat tomonidan huquqiy normalar, institutlar hamda mexanizmlar orqali tartibga solinadigan ijtimoiy tizim sanaladi. Ushbu tushuncha davlatning normativ-huquqiy faoliyatini faqatgina qonun chiqarish jarayoni sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi, nizolarning oldini oluvchi hamda hamkorlik asosida boshqariluvchi tizim sifatida talqin etadi.

Institutsional-huquqiy tartib – huquqiy institutlar, huquqiy tartibotni ta'minlash, madaniy-huquqiy qadriyatlar va an'analarni rivojlantirish, kelishuv va ijtimoiy konsensusga asoslangan jarayonlarning uyg'unlashuvidan iborat. Zamonaviy dunyoda samarali boshqaruv, ya'ni institutsional tartibga solish tizimi, ko'plab omillar va sabablar ta'sirida o'zgaruvchan hamda dinamik jarayon hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, huquqiy munosabatlarning yangi turlari paydo bo'lishi sharoitida institutsional tartibga solishning huquqiy vositalariga o'zgartirishlar kiritilishi davlat boshqaruvining tartibga soluvchi shakllarini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish zaruratini tug'diradi.

E.V. Vorobyovaning (2005) fikricha, "institutsional-huquqiy tartib" atamasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, davlatning huquqiy hamda tartibga soluvchi faoliyati va madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega va nizolarsiz munosabatlar shakllari hamda modellarining barqarorligi, tartibliligi va takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan, ijtimoiy hayotning huquqiy, mafkuraviy, jamoaviy va kelishuv asosida rasmiylashtirilgan tashkil etilishidir.

Kovalyovaning (2021) ta'kidlashicha, institutsional tartibga solish ijtimoiy erkinlikni ifodalovchi yuqori samarali tizim bo'lib, u tegishli huquqiy hujjatlarning mavjudligi va ijtimoiy munosabatlarning barqaror saqlanishini nazarda tutadi. Keltirilgan ta'riflar o'rganilayotgan fenomenni chuqur ilmiy tahlil qilish urinishini ifodalaydi, ammo bizning nuqtayi nazardan olib qaraganda, ushbu ta'riflar haddan ziyod detallashtirilganligi bilan ajralib turadi, bu esa ularning mazmun-mohiyatida ko'rib chiqilayotgan tushunchaning ma'nosini aniq tushunishga xalaqit beradi.

Bizning nuqtayi nazarimizdan, davlat huquqiy siyosati transformatsiyasini aniq-

lashga oid yondashuvni Kryvytskyy (2023) ushbu mavzuga oid oʻz ishida namoyish etgan. Uning fikricha, *huquqiy transformatsiya huquqiy rivojlanishning shakllanishi, faoliyat yuritishi, yoʻq qilinishi kabi huquqiy oʻzgarishlar bilan birga tarkibiy qismi sanaladi hamda huquqiy evolyutsiya, huquqiy inqilob, huquqiy islohot koʻrinishida ham amalga oshiriladi. Shuningdek, huquqiy voqelikdagi oʻzgaruvchan jarayonlarga yuzlanish tubdan yangi voqelikka sabab boʻlgan huquqiy taraqqiyotning maqbul, samarali modelini ilmiy izlashni davom ettirishdan iboratligi* haqida ta'kidlagan. Keltirilgan ushbu ta'rif hodisaning mazmun-mohiyatini yetarlicha toʻliq aks ettiradi. Negaki, bir tomondan, huquqiy siyosat transformatsiyasi huquqiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻlishi, ya'ni huquqiy tizimning shakllanishi hamda faoliyat yuritishi yoki yangilanishi (bir-biriga zid normalarning bekor qilinishi va yangi normalar bilan toʻldirilishi)ni koʻrsatsa, boshqa tomondan esa evolyutsiya, inqilob hamda islohotlarning uygʻun shakli sifatida huquqiy voqelikdagi oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliqligini ifodalaydi.

A. Wicaksana, A. Putri, M. Orias (2025) fikrlariga koʻra, milliy huquqning adolatli demokratik davlat sari oʻzgarishi koʻp qirrali jarayonlardan biri boʻlib, *u tarixiy sharoitlarni, amaldagi qonunchilik asoslarini hamda marginal guruhlar duch kelayotgan tizimli muammolarni har tomonlama tushunishni talab qiladi*. Oldinga boradigan yoʻl fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni, marginal ovozlarni himoya qilishni, shuningdek, xalqaro inson huquqlari standartlariga rioya qilishni oʻz ichiga olishi kerak.

Ushbu ta'rifning ilmiy qiymati quyidagilardan iborat:

birinchidan, milliy huquq tizimining evolyutsiyasini tushunish uchun tarixiy sharoitlarga e'tibor qaratish lozimligi, xususan, avtoritar tuzumdan demokratik boshqaruv shakliga oʻtish jarayonida faqatgina konstitutsion oʻzgarishlar bilan emas, balki u jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, fuqarolarning oʻz huquq va erkinliklarini anglab, ulardan amalda foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirishni oʻz ichiga oladi;

ikkinchidan, bu nafaqat mavjud qonunlarni qayta koʻrib chiqishni, balki ularning barcha demografik qatlamlarda adolatli qoʻllanishini ta'minlash mexanizmlarini amalga oshirishni oʻz ichiga oladi;

uchinchidan, marginal guruhlarning huquqiy holati, ya'ni ayollar, nogironlar, etnik ozchiliklar, yoshlar va boshqa shu kabi aholi qatlamlarining manfaatlarini hisobga olish va ularning huquqlarini real tarzda himoya qilish.

Boshqa olimlarning fikrlariga tanqidiy ruhda yondashgan A.Y. Gavrilova va S.O. Rybakova (2021)ning ta'kidlashicha, raqamli jamiyatda axborot umumiy qadriyatga aylangan hamda tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy dinamika sharoitida huquqni tan olish, farqlash, himoya qilish, ta'minlash va boshqarishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ushbu faoliyatni "huquqiy siyosat" deb atash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Demak, raqamli muhitda huquqni boshqarish, muhofaza qilish hamda rivojlantirishga qaratilgan har qanday faoliyatni "huquqiy siyosat" deb belgilash nafaqat terminologik, balki konseptual jihatdan ham eng toʻgʻri yondashuv sanaladi. Chunki aynan huquqiy siyosat orqali davlat axborotga asoslangan boshqaruv tizimini yaratadi, inson huquqlarini zamonaviy sharoitda kafolatlaydi hamda jamiyatda adolat, barqarorlik va ishonch muhitini ta'minlaydi.

Zamonaviy hayotda ilmiy va texnologik oʻzgarishlar sharoitida ushbu munosabatlarning barcha ishtirokchilari ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish qoidalari hamda tartiblarini inobatga olishlari zarur. Axborot jamiyatida inson huquqlarini himoya qilish bilan bogʻliq xavf tushunchasi alohida e'tibor talab etadi. Shuningdek, xorijiy va xalqaro xizmatlardan foydalanuvchilarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun

yetarli kafolatlar hamda tezkor mexanizmlarning mavjud emasligi ham muhim muammo sifatida koʻrsatib oʻtiladi.

Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish jarayonida bir qator savollar tabiiy ravishda yuzaga keladi:

1. Insoniyat ilgʻor axborot texnologiyalari aylanishini boshqarish qobiliyatiga egami?

2. Huquqiy siyosatni oʻzgartirish jarayonida qanday nazorat shakllari eng maqbul sanaladi?

3. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi inson hayotida qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?

Umumiy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, davlat huquqiy siyosatini oʻzgartirish jarayonini huquqiy siyosatning alohida tarmogʻi sifatida ilmiy asoslangan va real hayot talablariga mos tarzda ishlab chiqish zarur. Ana shundagina u mamlakat miqyosida asosiy strategik siyosat yoʻnalishiga aylanishi mumkin.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, davlat huquqiy siyosatining transformatsiyasi jarayoni – fuqarolarning huquq va erkinliklarini, adolatni ta'minlagan holda mavjud huquqiy tizimni zamon talablariga moslashtirish jarayoni. Huquqiy voqelikni raqamlashtirish sharoitida huquqiy siyosatni oʻzgartirish jarayoni faol amalga oshirilmoqda. Uning oʻziga xos jihati huquqiy hujjatlar, davlat boshqaruvi funksiyalari hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining uzviy uygʻunligidadir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Davlat huquqiy siyosati transformatsiyasi davlat va huquq nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida mustaqil ilmiy maqomga ega boʻlishi, shuningdek, ushbu yoʻnalish uchun tizimli konsepsiya ishlab chiqilishi zarur. Mazkur konsepsiya asosida "huquqiy siyosat transformatsiyasi" tushunchasining umumqabul qilingan ilmiy ta'rifi ishlab chiqilishi lozim.

2. Raqamli platformalar (xususan, sun'iy intellekt) yordamida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday texnologiyalar huquqiy kolliziyalar va takrorlanishlarni aniqlash imkonini berib, qonunchilik tizimidagi qarama-qarshiliklar va "boʻshliqlar"ning oldini olishga xizmat qiladi.

3. Oʻzbekiston Respublikasining "Davlat huquqiy siyosati transformatsiyasi toʻgʻrisida"gi Qonunini ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Ushbu hujjatda huquqiy siyosat transformatsiyasining maqsadi, prinsiplari, uni amalga oshirishga mas'ul subyektlar doirasi, asosiy yoʻnalishlari hamda amalga oshirish mexanizmlari aniq belgilanishi lozim.

4. Davlat huquqiy siyosati transformatsiyasi fanini oliy yuridik ta'lim muassasalari oʻquv dasturlariga mustaqil fan sifatida kiritish maqsadga muvofiq. Bu orqali talabalarda huquqiy siyosat va uning transformatsiyasi jarayonini chuqur anglashga yordam beruvchi ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin boʻladi.

## REFERENCES

1. Botirov, D. O. (2022). Jamoatchilik nazorati davlat farovonligining muhim omili [Public control is an important factor in the well-being of the state.]. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 513–518 https://cyberleninka.ru/article/n/jamoatchilik-nazorati-davlat-farovonligining- muhim-omili

2. Chryssogelos, A. State transformation and populism: From the internationalized to the neo-sovereign state? Politics, 2020. 40(1), 22–37.

3. Gavrilova, Y. & Rybakova, O. (2021). *The Transformation of Legal Policy in the Context of Digitalization of the Legal Reality*. 17–23. https://doi.org/10.15688/lc.jvolsu.2020.4.2

4. Kovalyova, V. V. (2021). The Fundamental Legal Values of Modern Legal Regulation. SHS Web Conf. 14th Session of Euro Asian Law Congress The Value of Law 2021. https://doi.org/10.1051/shsconf/202213400080

5. Kryvytskyi, Y. (2023). *Legal transformation as a component of modern Legal development*. Transformation legislation of Ukrain in modern conditions doctrinal approaches and measurements. https://doi.org/10.33663/2524-017x-2023-14-248-253

6. Lamazhaa, CH. K. (2011). Sotsial'naya transformatsiya [Social transformation]. *Znaniye. Ponimaniye. Umeniye*, [Knowledge. Understanding. Skill]. 1. https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnaya-transformatsiya

7. Leibfried, S., Huber, E., Lange, M., Levy, J. D., Nullmeier, F., Stephens, J. D., (2015). *Transformations of the state*. Oxford university Publ. 1.

8. Lipchanskaya, M. A., & Shindina, A. V. (2025). Osobennosti tsifrovoy transformatsii sel'skikh munitsipalitetov: konstitutsionno-pravovoye issledovaniye [Features of the digital transformation of rural municipalities: a constitutional and legal study]. *Bulletin of Tomsk State University. Law*, 55, 66–77. doi:10.17223/22253513/55/6

9. Mazurenko, P. (2004). Pravotvorcheskaya Politika V Rossiyskoy Federatsii: Problemy Teorii I Praktiki [Lawmaking Policy in the Russian Federation: Problems of Theory and Practice]. Dissertation Candidate of Law. 24

10. Poluyanova, E. V. (2025). Tsifrovaya transformatsiya sistemy gosudarstvennogo upravleniya [Digital transformation of the public administration system]. *Agrarnoye i zemel'noye pravo,* [Agrarian and land law]. 1, 75–77. doi:10.47643/1815- 1329_2025_1_75

11. Safarov, B. O'. (2021). Transformatsiya jarayonida davlat va jamiyat munosabatlari va ularning o'zaro ta'siri [The history of state-society relations in the transformation zone]. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 741–745.

12. Stepanova, M. N. (2025). Regulirovaniye pravootnosheniy v epokhu tsifrovoy transformatsii [Regulating legal relations in the era of digital transformation]. *Law and order: history, theory, practice*, 1(44), 44–49. doi:10.47475/2311-696X-2025-44-1-44-49.

13. Vorobieva, E. V. (2005). *The Institutional and Legal Order in Modern Russia*. Extended Abstract of the Cand.Sci. (Law) Dissertation. Rostov-on-Don, 28.

14. Weible, C. M., Berglund, O. Y. Dunlop, C., & Koebele, E. A. (2022). Transformational change through public. Policy and Administration, 50(3), 302–317. https://doi.org/10.1332/030557322X16546739608413/

15. Wicaksana, A., Putri, A., Orias, M. (2025). Transformation of National Law Towards a Just Democratic State. *Journal of Law and Humanity Studies*. https://doi.org/10.59613/xbfbde43

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 5-SON

VOLUME 5 / ISSUE 5 / 2025
DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.5.